

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA TA'LIM TIZIMIGA BIR NAZAR

*Jo'rayeva Muxlisa To'ymurod qizi
Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Germaniya ta'lismi tizimlari solishtirilgan. Maqola ikki mamlakatning ta'lismi tizimlaridagi asosiy farqlar va o'xshashliklarni tahlil qiladi. O'zbekistonning ta'lismi tizimi islohotlar jarayonida bo'lib, Germaniyaning ta'lismi esa yuqori sifat va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Maqola ta'lismi tizimlarining tuzilishi, kasbiy ta'lismi, oliy ta'lismi va xalqaro hamkorlik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan Yevropa davlatlari tushunchasi o'zgacha bir talaffo'zda "Yangi Industrial Davlatlar" atamasi sifatida yaqin o'tgan yillarda fanga kirgan bo'lib, Yevropada Germaniya, Franstiya, Angliya davlatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga an'anaviy rivojlangan davlatlardan Germaniya davlati ta'lismi yutuqlarining tilga olinishi muammoning o'tmish va hozirgi davr rivojlanish darajalari buyicha kompleks yondoshuvidan dalolat beradi. Bunda tilga olingan davlatlardagi taraqqiyotning o'ziga xos tomonlari, rivojlanishiga ma'lum bir jihatlari bilan ta'sir etganini alohida qayd etish mumkin. Germaniyada bu jarayon mahalliy mentalitet asoslariga tayanib, turlicha kechgan bo'lsada, ularni umumlashtirib turuvchi shunday tomonlar borki, uning quyidagi umumiy jihatini kuzatish mumkin:

- ularning har birida ta'lismi – tarbiya tizimining qadimiy boy an'analarga ega ekanligi va ta'lismi – tarbiya sohadasining jamiyatda yuqori hurmat darajasida yuksak tutilishi;
- ulardagagi har bir xalqning ilmgaga tashnaligi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida izchil harakat qiluvchi mehnatkashligi va sabr – toqatli ekanligi;
- ularda ta'lismi tarbiyaga nisbatan jamiyatda katta ehtiyoj mavjudligi va uning amaliyot bilan bevosita izchil bog'liqligi;
- ularda ta'lismi – tarbiya tizimiga davlat markaziylari – iqtisodiy fondlardan ajratiladigan mablag'larning juda yuqori darajada ekanligi.

O'zbekistonda rivojlangan davlatlaridagi ta'lismi yutuqlarining o'r ganilishining qonuniy jihatlari esa yurtimizda qabul qilingan "Ta'lismi to'g'risida"gi Qonun asoslab berilgan.

Hozirda nafaqat Yevropaning rivojlangan davlatlarida, balki dunyo miqyosida borayotgan "ta'limga texnologik tus olishi" jarayoniga oid ma'lumotlar oqimi juda katta bo'lsada, uning nazariy – uslubiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan texnologik jihatdan yaxlit bir etalonli tizimga hali ham asos solinmagan. Bunda tushunchalar, maqsad-vazifalar, asos tamoyillar, usullar va

monitoring masalalarining avtonom holda tarqoq yoritilib borayotganligining ustivorligini kuzatish mumkin.

Yevropa rivojlangan davlatlari ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llash masalasi bo'yicha hozirda milliy pedagogikamizda ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy yo'nalishdagi ishlarni kuzatish mumkin [1].

Uning ilmiy-nazariy jihatlari asosan fundamental ilmiy tadqiqotlar doirasida borayapti. Bunda O'zFAning pedagogika yo'nalishlari buyicha ilmiy tekshirish markazlarida olib borilayotgan ishlar ustivorligi ko'zga tashlanadi. Ushbu ishlar o'zining tadqiqot ko'lAMDAGI bo'yicha yirik monografik va maxsus yo'nalishga bag'ishlangan kichik ilmiy ishlardan (maqolalar, tezislar, ma'ruzalar) dan iboratdir. O'zining yo'nalishi boyicha esa tadqiqotlar umumiy kompleks izlanishlar doirasidagi parallel ishlar, maxsus umumiy yo'nalishdagi ishlar va kichik tor yo'nalishdagi maxsus ilmiy ishlardan iborat. Ushbu yo'nalishlarning ko'pchiligi endi shakllanish darajasida bo'lib, bu shu sohadadagi ma'lumotlarning hali to'planish bosqichida ekanligi bilan bog'liq. Yangi ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng uning yo'nalishlar bo'yicha ma'lum bir tizimda shakllanishi ushbu sohadagi tadqiqotlarning tarqoq yo'nalishlarda tizimli tus olib borishini ta'minlaydi [2].

Muammoning ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy o'rganilganishi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in ishlari yurtimizda pedagogikaga oid mutaxasislarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimidagi markazlar hamda tashkilotlarda amalga oshirilmoqda desak xato bo'lmaydi. Chunki aynan shu tizimda pedagogikadagi yangi texnologik o'zgarishlar fundamental tadqiqot natijalarining bevosita ta'lim jarayoniga amaliy kirib borishiga yo'l ochiladi.

Muammoning ilmiy-amaliy jihatlari esa bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni va unga bog'liq bo'lgan tashkiliy, nazariy va amaliy yo'nalishlarda o'z aksini topadi. Bunda ta'lim tizimi har bir bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq talablardan kelib chiqilgan holda muammoning yechimlari va natijalari ham turlicha darajada bo'ladi. Ushbu tizimda maktablarda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va uni bevosita amaliyatga qo'llash o'zining alohida o'rniga ega. Unda o'quv jarayoni shakllari, usullari va vositalarining qo'llanilishida albatta, yangi pedagogik texnologiyalarning ta'siri kundan-kunga sezilarli bo'lib bormokda. Kirib kelayotgan innovasion texnologiyalarni qo'llashda esa o'qituvchilarning yuqori malakaga va yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishlari talab etiladi. Ushbu yangiliklar asosida yosh mutaxasislarni tayyorlash bo'lsa hozirgi pedagogikamizning dolzarb muammolaridan biridir [3].

Milliy pedagogikamizni rivojlantirish jarayonida respublikamiz ta'lim tizimining zamонавиy mexanizmini shakllantirish ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan

shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi. Bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallahuviga, mavjud pedagogik- psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi"ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etadi. Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish. Buning uchun esa kasbiy pedagogik tayyorgarlik, ta'lim yo'nalishida pedagogik mahorat asoslari fanini o'qitishni mukammallashtirish demakdir [4].

Yevropa rivojlangan davlatlari ilg'or pedagogik texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'quvchilari savodini chiqarish, nutqini rivojlantirishga milliy an'analarimizdan kelib chiqqan holda joriy etish o'ziga xos yondoshuvlarni taqozo etadi. Chunki Yevropa davatlari pedagogikasida uchraydigan yoshlarga nisbatan «mehnattalab yondoshuv» bolalarda mustaqil o'qish va o'z savodini chiqarishda o'qituvchi bilan barobar bir xilda harakat qilishini rag'batlantiradi. O'z navbatida savodxonlik bo'yicha bunday hamkor mehnat bolalar nutqining to'g'ri yo'nalishda shakllanishiga olib keladi. Bu bolada o'z fikrini o'ylab, etkazish kabi madaniy tarbiya ko'nikmasini shakllantiradiki Yevropaning tilga olingan davlatlarida bu narsa fuqarolar orasidagi munosabatlarning asosi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga bola savodi va nutqining to'g'ri shakllanishi uning boshqa yo'nalishdagi fanlarni o'zlashtirishiga ham yordam beradiki, bu bolada tushunchalarni anglab qabul qilinishi natijasida so'z zahirasining ijobiy yo'nalishda izchil o'sib borishi bilan bog'liq bo'ladi.

Borayotgan juda tezkor taraqqiyot va shu bilan bog'liq ravishda barcha sohalarga oid turli yangiliklar va ma'lumotlaorning pedagogikaga kirib kelishi Germaniyada ta'limning tor soha yo'nalishida ixchamlashib borayotganligi ko'zga tashlanadi. Bu esa tor sohada mutaxasislarini tayyorlashga olib keladi. Bizda esa azaldan ta'lim – tarbiyaning har tomonlama bo'lishi asosiy talablardan biri bo'lib kelgan. Bu «komil inson tarbiyasi» va «barkamol avlod tarbiyasi» kabi fikrlarda o'z aksini topgan. Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilib borayotganligi va zamonaviy pedagogikada kuchli integrastiya jarayonlarining keng ko'lamda tarqalayotganligining kuchli ijtimoiy oqimi bu ziddiyatlarni yaqin kelajakda bartaraf etadi. Natijada yurtimizda 1997 yilda boshlangan va hozirda ham davom etayotgan, milliy an'analarimiz zaminida zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan yangi bir tizim vujudga kelishi davrimizning real ijobiy haqiqatidir. Ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy hayotda, xalqning turmush tarzi va ongida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklarni o'quvchilar ongiga singdirish, yoshlarni hayotga, ishlab chiqarishga, ilm va fanga yo'naltirish ta'limning asosiy maqsadidan biriga aylanadi [5].

Ta'lim jarayonida amal qiladigan teskari aloqa mohiyati yangi ilg'or g'oyalar bilan boyitildi. Natijada o'quvchilarning bilim, ko'nikma-malakalari, ijodiy faoliyat ko'rsatish, tabiat, jamiyat, ong hodisalarini emotsiyonal baholash qobiliyatlarini ob'ektiv nazorat qilish imkoniyatlari ortdi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya ishlarini rivojlangan mamlakatlar pedagogik amaliyotiga qiyoslagan holda O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos ta'lim tizimini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga ilmiy-amaliy jihatdan zamin yaratdi.

Rivojlangan mamlakatlar bilan o'rnatilgan aloqa, o'zaro tajriba almashish pedagogika fani tariqqiyotiga ham ijobiy ta'sir eta boshladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar mutaxassis olimlar, maktab o'qituvchilarining faoliyatiga singib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim, tarbiya fuqarolar kasbiy tayyorgarligi va har bir fuqaroning ilm olishdan iborat konstitutision huquqini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlarni yangi ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich targ'ib etib borishni nazarda tutadi.

Ta'lim sohasida "Ta'lim to'g'risida" Qonun qabul qilinganligi, 1996—1997 yildan boshlab birinchi sinflarda o'qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda dastur, qo'llanma, dasrliklarning yaratilganligi — bu ta'lim sohasida qo'yilgan dastlabki odimlar edi.

O'tgan davrda yangi turdag'i ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida listeylar ochildi. Qobiliyatli o'quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O'qituvchilar xorijiy davlatlarda bo'lib, ilg'or tajribalarni o'rganib kela boshladilar.

Viloyatlarda yangi-yangi biznes maktablari, kichik va o'rta kasb hunar kurslari ochila boshladi va bozor iqtisodi sharoitida fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit v.b. yangi mutaxassisliklar kiritildi. Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institatlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxasislari respublikamiz o'quv muassasalariga jalb etildi. Lekin hozirgi davrda amalga oshirilgan barcha ishlarga qaramay ta'lim tizimi hali hayot talablari darajasida natjalarga erishmayotgani, eski Sho'ro zamonidan meros bo'lib qolgan mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xalos bo'la olmagani, shuningdek, uzlusiz ta'lim tizimini tashkil etish muammolari to'liq hal etilmagani va nihoyat, amaldagi ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar darajasida rivojiana olmaganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mutaxasislar kadrlar tayyorlash, ularga bilim va tarbiya berish tizimi mamlakatimizda amalga oshayotgan islohotlar bilan bog'lanmagani, maktablarning moddiy bazasi talabga javob bera olmayotgani, kadrlar, o'qituvchilar tayyorlash muammosi hali hal etilmagani ma'lum bo'ldi. O'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklar ham talabga javob

bera olmayotganini hayot ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzlusiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek mustaqil fikrlay oladigan, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O4'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da belgilangan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish hamda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda [6,7].

Ta'limni texnologik yondashuv asosida tashkil etish esa o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, hayotiy tajribalariga tayangan holda o'quv dasturida o'z ifodasini topgan mavzularning ma'lum andoza (kichik model) larda aks ettirilishi, kichik guruhlar asosida fan mazmuni muayyan qismlarining puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi. Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan darslar o'quvchilarni jamoa hamda guruh ishtirokida faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga o'zgalar fikrini tinglash, o'zining mustaqil qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, mavzu yuzasidan bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirish, ular orasidan eng muhimlarini tanlab olish, shuningdek, yakuniy xulosaga kelish imkoniyati yaratiladiki, buning natijasida o'quvchilarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yuzaga keladi hamda rivojlanib boradi.

Istiqlolga erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'lim mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "asosida amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kasbga yo'naltirish ishlari jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ayni vaqtda o'zining keng tadbiqini kutayotgan, fanning boshqa sohalari bilan aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi konstepsiya va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Xulosa

Har ikki davlat ta'lim tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekiston Germaniya tajribasidan foydalanib, kasbiy ta'limni rivojlantirish, amaliyotga asoslangan o'qitish tizimini takomillashtirish hamda sifat nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ikkala mamlakat ham zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga intilmoqda va bu orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lida harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016, 14-bet.

1. 2. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. -T.: 2000. -161 b.
2. Xorijda ta'lim. -T., 2000 . 3.Sravnitelnaya pedagogika. -T., 2001 .
3. Xorijda ta'lim. Ma'rifikat, 2001 yil 26 dekabr.
4. Germaniyada kasb-hunar ta'limi. Xorijda ta'lim. "Ma'rifikat" gazetasi, 2002 yil 13 fevral.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalla>
6. www.ziyonet.uz